

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10934588>

JADIDLAR ORZUSI (A.AVLONIY QARASHLARI ASOSIDA)

Saydullayev Ulug‘bek Ubaydullayevich

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadidchilik faoliyatining vujudga kelish tarixi, jadidchilikning diyorimizga kirib kelishi, uning yorqin vakillari, yurtimiz tarixida tutgan o‘rni, jadidchilikning bebaho merosi xususan Abdulla Avloniyning faoliyatiga alohida to‘xtalib o‘tiladi. Abdulla Avloniyning amalga oshirgan ishlari, yozgan asarlarining ahamiyat keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Jadidchilik, pedagogika, metod, usuli jadid maktabi, tarbiya, axloq, “Turkiy Guliston yoxud axloq”, yaxshi xulq, fikr tarbiyasi

Аннотация: В этой статье будет рассмотрена история деятельности джадидизма, внедрение джадидизма в нашу страну, его яркие представители, место в истории нашей страны, бесценное наследие джадидизма, особенно творчество Абдуллы Авлони. Было отмечено значение трудов и трудов Абдуллы Авлани.

Ключевые слова: Джадидизм, педагогика, метод, метод Джадидская школа, образование, этика, «турецкий Гулистан или этика», хорошие манеры, воспитание мысли

Abstract: In this article, the history of the activity of jadidism, the introduction of jadidism to our country, its bright representatives, the place in the history of our country, the priceless heritage of jadidism, especially the work of Abdulla Avloni, will be discussed. The importance of Abdulla Awlani’s works and works was mentioned.

Keywords: Jadidism, pedagogy, method, method Jadid school, education, ethics, “Turkish Gulistan or ethics”, good manners, thought education

Kirish. Yurtimiz tarixida ma'rifatparvar, ilmga chanqoq va kelajak avlodni ham ilmi qilib voyaga yetkazishni niyat qilgan ziyolilar salmog'i ko'p. Ular o'zlari eng avvalo ilm olib, so'ngra atrofidagi insonlarga ayniqsa, bolalarga ziyo tarqatish, ta'lim jarayonlarini takomillashtirib, mukammal darsliklar yaratish ishtiyoqida bo'ldilar. Ayniqsa vatanimizga bostirib kelishgan va boyliklarini talon-taroj qilishayotgan bir davrda yoshlarga to'g'ri yo'l ko'rsatib, zamonasining eng ilg'or bilimlarini egallashga bo'lgan da'vatlari bilan yurtimiz tarixida o'chmas iz qoldirdilar.

Asosiy qism. Jahon va diyorimiz hayotida ro'y berayotgan siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar ziyolilar qatlamini befarq qoldirmadi. Ular bir g'oya ostida birlashib, xalqimizning ma'naviy boyliklarini tiklash, zamonaviy ta'lim dasturlarini qabul qilib, ta'lim jarayonlariga tatbiq etish ishlarini boshlab berishdi. Bu harakat namoyondalari jadidchilik harakati deb tarixga kirdilar.

“Jadid” so'zi bu arabcha so'z bo'lib “yangi”, yangilik tarafdorlari degan ma'noga ega. Bu harakat Turkistonda XIX-asr oxiri va XX asr boshlarida Chor Rossiyasining mustamlachilik siyosatining kuchayishi oqibatida paydo bo'ldi. Umuman shu davrlarda jadidchilik oqimi Misr, Turkiya, Kavkaz, Turkiston va boshqa o'lkalarda siyosiy oqim sifatida yuzaga keldi. Jadidlar o'z davrining ilg'or kishilari sifatida xalq ichida yangilik, ma'rifat, va madaniyat tarqatuvchilar edilar. Turkistonlik jadidlar ona Vatanni mustaqil, ozod holda ko'rishni bosh maqsadlari deb bilganlar. “Jadidchilik”ning asosida jadid so'zi yotadi. “Jadid”ning ma'nosi “yangi” demakdir. Bunda faqat yangi texnologiya yoki yangiliklar tarafdorlarigina bo'lib qolmasdan, balki yangicha fikrlash, yangicha metodlardan foydalangan holda ta'limni takomillashtirish, xalqimizning dunyoqarashini kengaytirish yo'lida turli davriy nashrlarni bosib chiqarish, ijtimoiy muommolarni o'zida aks ettirgan o'tkir syujetli asarlar va sahna ko'rinishlari, jahon adabiyotining nodir durdonalarini tarjima qilish kabi harakatlarni ham o'zida mujassam etadi.

Jadidchilik g'oyasining ilk namoyondasi Ismoil Gasparali bo'lib, Boqchasaroyda yangi usul maktabini tashkil etib bu yo'nalish asoschisiga aylanadi. U o'z fikr-mulohazalarini ommaga muntazam yetkazib turish maqsadida “Tarjimon” gazetasini

chiqara boshlaydi. Bu gazeta Rossiya Imperiyasida muntazam ravishda 20 yil davomida bosib chiqarilgan musulmon gazetasi hisoblanadi. Ismoil Gasparalining Buxoroga tashrifi juda muhim qadam bo'lib, bunda amir Abdulahadxon bilan uchrashib o'z g'oyalarini amalda tatbiq etishga, yangi usul maktabini ochishga muvofaq bo'ladi. Shu tariqa yurtimiz hududida ham ilk yangi usul maktablari ochila boshladi. Bu esa qaysidir ma'noda jadidchilik harakatining yanada kengroq yoyilishining sabablaridan biriga aylandi. Shu davrda jadidchilik vakillarining eng salmoqli amaliy ishlarini ham kuzatishimiz mumkin.

Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, I'shoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma'rifatparvar, fidoi insonlarning o'z shaxsiy mafaati, huzur-halovatidan kechib, el-ulus manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan also o'chmaydi. Amalda ham Birinchi Prezidentimiz jadidlar merosini o'rganish, amalda qo'llash choralari ishlab chiqish bo'yicha salmoqli ishlarni amalga oshirdi. Chunki har bir xalqning ma'naviy merosi uning bevosita kelajagiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Jadidlar merosini o'rganish borasidagi ishlarga prezedentimiz Shavkat Mirziyoyev ham bosh bo'lib, bugungi kunda davlat darajasida e'tibor bermoqdalar. Xususan jadidlarning fikrlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiyning "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur" degan so'zlari bugun ham dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu fikrdan anglashiniladiki, jadidlarimiz bir qancha muddat o'rganilmay qolgan aniq va tabiiy fanlarni ham ta'lim tizimiga kiritish, yosh avlodlarga o'rgatish tarafdorlari bo'lishgan.

Har bir jadidchilik namoyondasi bu borada o'z qarashlari bo'lib, umumiy maqsadga borish yo'lida turli yo'llar va vositalardan foydalanishga harakat qilishgan. Jadidchilik harakatining eng yirik namoyondalaridan biri Abdulla Avloniy bo'lib, o'zbek adabiyoti, noshirlik ishi, yangi usul maktablarini ochish va ularga darsliklar yozish, pedagogik metodlarni ilmiy tadqiq etish va amalda qo'llash, teatr truppasida asarlarni sahnalashtirish, chet tillaridan tarjimalarni amalga oshirish kabi zalvorli

ishlarni bajarib tariximizda o‘chmas iz qoldirgan. Abdulla Avloniy 1878-yili 12-iyulda Toshkent shahrida tug‘ilgan. Otasi hunarmand bo‘lib, o‘g‘lining ta‘lim olishiga katta e‘tibor bergan. Dastlabki ta‘limni O‘qchidagi eski maktabda olgan. Abdulla Avloniy 1904-yilda Mirobodda usuli jadid maktabini ochadi. E‘tiborli jihatlaridan biri shuki, maktabni qurishda, jihozlar bilan ta‘minlashda o‘zi bevosita ishtirok etib ustachilik ham qiladi. Maktabni davr talablari mos holda jihozlash, zamonaviy darsliklar va o‘quv qurollari bilan ta‘minlashga e‘tibor beradi. U birinchilardan bo‘lib maktabda fizika, kimyo, geografiya, astronomiya kabi fanlarni o‘qitishni yo‘lga qo‘yadi. Chunki bu kabi fanlarni o‘zlashtirmasdan turib yetuk kadr, mahoratli pedagog bo‘lib yetisha olish mumkin emasligini anglagan edi.

Abdulla Avloniy maktab o‘quvchilari uchun “Birinchi Muallim”, “Ikkinchi Muallim”, “Tarix”, “Turkiy Guliston yoki axloq” kabi zamonasi uchun hodisa bo‘lgan darsliklar yozgan. Bu darsliklarda adib ta‘lim va tarbiya borasidagi o‘z fikr-mulohazalarini, pedagogik usullarni yoritib bergan. Mazkur asarlardan keng miqyosida foydalanilgan bo‘lib ilgari surilgan g‘oya va fiklar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Abdulla Avloniy axloq haqida xulqlar majmui deb fikr bildiradi. Adib qarashlar bo‘yicha xulq ezgulik yoki razillikning bir insonda mujassamlashib, namoyon bo‘lishidir. Ushbu sifatlar insonda o‘z-o‘zidan shakillanmaydi. Kishilar yomon xulqli bo‘lib tug‘ulmaydi, balki ularni muayyan sharoit yomon qiladi deb hisoblaydi. Demak hamma narsa tarbiyaga bog‘liq. Tarbiya yo hayot, yo momot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir. Bu fikrlar zamon va makon tanlamaydigan g‘oyatda dolzarb masaladir.

Azaldan axloq, tarbiya haqida faylasuflar, davlat arboblari, adiblar fikr yuritishib, bahslashib kelishadi. Xususan Sa‘diy Sheroziy o‘zining “Guliston” va “Bo‘ston” asarlarida sharqona axloq haqida juda zalvorli mavzularni qamrab olgan. Abdulla Avloniy bu asarlarning katta ta‘siri ostida “Turkiy Guliston yohud axloq” nomli kitob yozadi. Adib ushbu asarning ma‘suliyati haqida yozar ekan, uning naqadar mushkul va og‘ir vazifa ekanligini, lekin uzoq vaqt davomida o‘ylab ushbu qarorga kelganligini ta‘kidlab o‘tadi. U bu shunday yozadi ”Turkiston maktablarida o‘z shevamizda

yoʻzilmish mukammal “Axloq” kitobining yoʻqligi afrodi millatning shunday bir asarga tashna va muhtoj ekanligʻi, oʻzum muallimlar jumlasidan oʻldugʻumdan, manga ham ochiq maʻlum oʻldi”. Yaʻni adibni shu paytda oʻz tilimiz, milliy mentalitetimiz va taʻlim tizimimizga mos boʻlgan axloq haqida asar yoʻqligidan qanchalar achinishni his qilishi va oʻz oldiga axloq haqida asar yozmoqlikni muqaddas vazifa etib tayinlashini qayd etib oʻtadi. Turkiy guliston yohud axloq asari bir nechta qismlarga boʻlingan boʻlib, har bir qism maʻlum bir mavzuga bagʻishlanadi. “Axloq”, “Yaxshi xulq, yomon xulq”, “Tarbiya”, “Badan tarbiyasi”, “Fikr tarbiyasi”, “Fatonat”, “Diyonat”, “Riyozat” va boshqa koʻplab qismlari inson xulqining maʻlum bir tomonini oʻzida ifoda etadi. Xususan, “Fikr tarbiyasi” qismida shunday satrlar keltiriladi ”Fikr tarbiyasi eng kerakli, koʻp zamonlardan beri taqdir qilinib kelingan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur”.

Abdulla Avloniy muallimlarning vazifalari muqaddas burch ekanligini, taʻlim va tarbiya orasida ozgina farq boʻlsada, aslida bir-birlarini toʻldirib turishliklarini aytib oʻtadi. Bu kabi fikr-mulohazalar hozirda yanada oʻz ahamiyatini oshirganligiga guvoh boʻlib turibmiz.asar 1913-yilda Toshkentda Ilin bosmaxonasida chop etilgan. 1917-yili ikkinchi marotaba chop etilishiga oshib borayotgan ehtiyoj sabab boʻladi.bu ikkala nusxalar hajm jihatidan bir xil boʻlganligini koʻrishimiz mumkin. Uchinchi nashri 1967-yilda “Oʻqtuvchi” nashiryoti tomonidan nashr etilgan. Bu nashrning oldigilaridan farqi diniy iboralar tushirib qoldirilganligidadir. Mustaqillik sharofati bilan “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari mukammal nashr etilishiga erishdik. Asarda toʻliq hajm bilan birgalikda izohli lugʻat ham taqdim etiladi. Bu esa asrni yanada chuqur oʻranishimiz va bugungi kun talablarini toʻgʻri anglagan holda amaliyotga tatbiq etishda katta rol oʻynaydi.

Xulosa. Abdulla Avloniy faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz oʻz davrining eng ilgʻor ilmlar egasi, zamonaviy taʻlimning jafokash namoyondasi, teatr va asarlari orqali xalqimizning kundalik muommolarini olib chiquvchi, jahon adabiyotining sara namunalarini xalqimizga yetkazuchi, gazetalar yordamida ommaning fikrlash doirasini kengaytirish kabi vazifalarni yoqqol koʻrishimiz mumkin. Bebaho merosimiz qadri

kun sayin oshib bormoqda. Hozirgi yoki kelajak ta'limida ham Abdulla Avloniyning xizmatlari beqiyos manba va xazina bo'lib xizmat qilishda davom etadi. Zero eng katta meros ma'naviy va tarbiyaviy meros bo'lib, kelgusi avlodlarning rivoji va yuksalishining asosiy poydevoridir. Ta'lim esa har qanday xalqning eng birinchi masalasi bo'lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Begali Qosimov. Milliy uyg'onish:Jasorat, Ma'rifat, Fidoiylik. Toshkent. Ma'naviyat 2002-yil. 5-bet.
2. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent. Ma'naviyat 2010-yil.49-bet.
3. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent 2021-yil 311-bet.
4. <https://tafakkur.net/abdulla-avloniy.haqida>
5. Begali Qosimov. Milliy uyg'onish:Jasorat, Ma'rifat, Fidoiylik. Toshkent. Ma'naviyat 2002-yil 253-bet.
6. Begali Qosimov. Milliy Uyg'onish:Jasorat, Ma'rifat, Fidoiylik. Toshkent. Ma'naviyat 2002-yil 267-bet.
7. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-avloniy-1878-1934/abdulla-avloniy-turkiy-guliston-yoxud-axloq>